



UDK: 911.2(575.4)

Yozil XAYITOV,
Buxoro davlat universiteti professori, geografiya fanlari doktori (DSc)
Iroda RAMAZONOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: yozil1961@mail.ru

NamDTU professori M. Ismoilov tarqizi asosida

BUXORO VILOYATI LANDSHAFTLARI HAQIDA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR

Аннотация

Ushbu maqolada Buxoro viloyatining geografik o‘rni, hududning tabiiy va antropogen landshaftlari, evolyutsion jarayonda shakllanishi o‘rganilgan. Viloyatdagi tabiiy va sun‘iy landshaftlarning bir biri bog‘liqligi haqida fikr mulohazalar yoritib berilgan. Buxoro viloyatining tabiiy komplekslari relyef, iqlim, suv resurslari, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanadi. Landshaftshunoslikda bu komponentlarning aloqadorligi geosistemalik yondashuv asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Landshaft, Buyuk ipak yo‘li, Qizilqum cho‘li, Qumli cho‘llar, toshli cho‘llar, Amu-Buxoro mashina kanali, Zarafshon daryosi, Jayron ekomarkazi, sug‘orma dehqonchilik.

БУХАРСКИЕ ОБЛАСТНЫЕ ЛАНДШАФТЫ: НЕКОТОРЫЕ МЫСЛИ И НАБЛЮДЕНИЯ

Аннотация

В данной статье изучены географическое положение Бухарской области, её природные и антропогенные ландшафты, а также формирование этих ландшафтов в ходе эволюционных процессов. Освещены размышления об взаимосвязи природных и искусственных ландшафтов региона. Природные комплексы Бухарской области формируются в результате взаимодействия рельефа, климата, водных ресурсов, почв, растительного и животного мира. В ландшафтоведении взаимосвязь этих компонентов исследуется на основе геосистемного подхода.

Ключевые слова: ландшафт, Великий шелковый путь, пустыня Кызылкум, песчаные пустыни, каменистые пустыни, Амударьинско-Бухарский машинный канал, река Зарафшан, экомарказ «Джейрон», орошаемое земледелие.

SOME REFLECTIONS ON THE LANDSCAPES OF BUKHARA REGION

Annotation

This article examines the geographical location of the Bukhara region, the natural and anthropogenic landscapes of the area, and their formation throughout evolutionary processes. It presents reflections on the interrelationship between natural and artificial landscapes of the region. The natural complexes of Bukhara are shaped by the interaction of relief, climate, water resources, soil, vegetation, and wildlife. In landscape studies, the interconnection of these components is analyzed based on a geosystem approach.

Keywords: landscape, Great Silk Road, Kyzylkum Desert, sandy deserts, stony deserts, Amu-Bukhara machine canal, Zarafshan River, Jayran Eco-Center, irrigated agriculture.

Kirish. Buxoro viloyati O‘zbekiston Respublikasining janubi-g‘arbiy qismida, Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan bo‘lib, mamlakatning qadimiy va tarixiy jihatdan muhim hududlaridan biridir. Viloyat 1938-yilda 15-yanvarda tashkil topgan. Uning umumiy maydoni 40,1 ming km² ni tashkil etadi. Ma‘muriy jihatdan Buxoro viloyati 11 ta tuman va 1 ta viloyat markaziga – Buxoro shahriga bo‘linadi.

Viloyatning tabiiy-geografik o‘rni uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zarafshon daryosining quyi oqimi bo‘ylab joylashgan sug‘oriladigan yerlar qadimdan dehqonchilik va shahar madaniyati rivojlangan maskan bo‘lib kelgan. Buxoro geografik jihatdan Markaziy Osiyoning transport yo‘llari kesishgan nuqtasida joylashgani bois, u qadimiy Buyuk Ipak yo‘li tizimining muhim markazlaridan biri bo‘lgan. Uning tabiiy sharoiti cho‘l va yarim cho‘l bilan qoplanganligi boshqa geografik hududlarning landshaftlaridan o‘ziga xosligi bilan tubdan farq qiladi. Shu sababli mazkur tadqiqot obyektini evolyutsion jarayondagi landshaftlarning geografiyasini ilmiy va amaliy tomondan o‘rganishni davrni o‘zi taqazo etadi. Soha mutaxassislarining ko‘p yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari asosida landshaftlarning shakllanishi bir turdan ikkinchi turga o‘zgarishi bo‘yicha ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Viloyat landshaftlarini o‘rganish - tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va hududni barqaror rivojlantirishning dolzarb muamomardan biri sanaladi.

Bizga ma‘lumki, tabiiy va suniy landshaftlar o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib ulardagi mavjud geografik komponentlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Tabiiy landshaft – bu ma‘lum bir joy iqlimi, relyefi, o‘simliklari va tuproq qatlami xarakterlarini yagona garmonik yaxlitligi sifatida, yerning ma‘lum mintaqalarida takrorlanuvchan birlashuvidir. Bunday birlashuvning qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan – bu landshaftshunoslikdir. U yerning landshaftli qobig‘i hamda uning tabiiy elementlari (tabiiy-hududiy va tabiiy-antropogen majmualar) to‘g‘risidagi fandir. antropogen landshaftlarning xususiyatlari inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan landshaftlar antropogen landshaftlardir va ular o‘zining tabiiy ta‘riflarini saqlab qolgan taqdirda ham o‘zida madaniy o‘simliklar, o‘zgargan tuproq xususiyatlari, yer osti va usti suvlari tartibi bo‘yicha «antropogen» mazmun kasb etgan bo‘ladi

Landshaft haqidagi ta‘limot haqida so‘z yuritar ekanmiz taniqli rus olimi A.G. Isachenko “ landshaft geografik qobiqning genetik jihatdan o‘ziga xos bo‘lan shunday bir qismidirk, u zonal xususiyatlari bo‘yicha ham va azonal xususiyatlari bo‘yicha

ham bir butundir va boshqa birliklarga bo'linmaydi" deb yozadi. F.N.Milkov esa "Landshaft – umumiy tushunchadir. Unda iqlim, tuproq, o'simlik, hudud relyefi o'rganiladi. Masalan Cho'l landshaftlari, tog' landshaftlari, botqoqlik landshaftlari kabilar shular jumlasidandir" deb yozadi. N.A.Kogay O'zbekistonda 50 dan ortiq landshaft xilini ajratgan (1982) va ularni zonalar hamda mintaqalar bo'yicha joylashishiga qarab landshaft turlariga guruhlashtirgan. O'zbekistondagi balandlik mintaqalarining quyi qismini tashkil qiluvchi cho'l turiga (tipiga) 33 ta landshaft xili kiritilgan. Ana shunday turdagi landshaft mazkur viloyatimiz hududida shakllangan.

Buxoro viloyati iqlimi yozda quruq tropik havo massalari ta'sirida, qishda esa shimoldan mutadil kengliklardan keladigan salqin havo massalari ta'sir ostida shakllanadi. Geologik nuqta nazardan hududi egarsimon strukturada joylashgan va qalinligi 400 metrga etadigan kontinental yotqiziqlar bilan to'ldirilgan. Ular hamma yerda keng tarqalgan paleogen davrning gillari ustida yotadi. Paleogen davri gillari, pastda joylashgan bo'r qumtozlari davri uchun suv o'tkazma qatlam vazifasini bajaradi, qatlam sersuvligi bilan farq qiladi va bosim ta'sirida yer yuziga o'zi oqib chiqadi. Tarkibi sulfatli, mineralashganligi 2-3 g/l ni tashkil qiladi.

Buxoro viloyatida suv resurslari cheklangan, shuning uchun samarali boshqarish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va suvni tejash juda muhim. Amudaryo va yer osti suvlar viloyatning asosiy suvi bo'lib, dehqonchilik, sanoat va ichimlik suvi uchun hayotiy ahamiyatga ega.




Buxoro viloyatining suv resurslari xaritasi

Buxoro viloyatining landshaftlarini tahlil qilishda quyidagi metodologik tamoyillar qo'llaniladi:

1. Komplekslik tamoyili – tabiiy komponentlar (iqlim, suv, tuproq, o'simlik) o'zaro bog'liq holda o'rganiladi.
2. Hududiylik tamoyili – har bir landshaft viloyatning aniq geografik chegarasida ko'rib chiqiladi.
3. Tarixiylik tamoyili – landshaftlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy jarayonlar orqali o'rganiladi.
4. Qiyosiy tahlil tamoyili – Buxoro landshaftlari boshqa viloyatlar bilan solishtirilib, umumiylik va farqlar aniqlanadi. Ilmiiy izlanishlar jarayonida kartografik, taqqoslash, stasionar metodlardan foydalandik.

O'ylaymizki, Buxoro viloyati landshaftlarini ayrim xususiyatlarini o'rganish kelajakda qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirishda, cho'l ekologiyasini saqlashda, ekoturizmni rivojlantirishda va ekologik muvozanatni barqarorlashtirishda dasturi amal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Natijalar va muhokama. Viloyat landshaftlari asosan Qizilqum cho'li, Amudaryo vohasi, Buxoro–G'ijduvon tekisligi kabi tabiiy hududlarga bo'linadi. Har bir hudud o'zining morfologik tuzilishi va ekologik xususiyatiga ega. Viloyat 2 xil geotizimdan iborat. 1- cho'l 88.6%, 2- voha 11.4% hududni egallaydi. Viloyat tabiiy oqar suv manbaiga ega emas. Bugungi kunda asosiy suv manbai 1962-1975-yillarda qurilgan Amu-Buxoro mashina kanalidir. Kanal orqali Amudaryodan har yili 4,2 – 4,8 km³ suv olinadi va relyef nishabligiga teskari yo'nalishda Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor vohalariga suv oqiziladi. Kanal suvining katta qismi bilan To'dako'l va Quyimozor suv omborlari to'ldiriladi. Buxoro viloyatining tabiiy komplekslari relyef, iqlim, suv resurslari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Landshaftshunoslikda bu komponentlarning aloqadorligi geosistemalik yondashuv asosida o'rganiladi.



Buxoro viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy xaritasi.

Viloyatning umumiy yer maydoni 4 mln 200 ming gektardan iborat bo'lib, sug'oriladigan maydonlari 274.60 ming gektar, shulardan 20909 gektar (0,5%) bog'lar, 2674186 gektar (63,77%) yaylovlar, 205616 gektar (4,9%) O'rmonzorlar va 1002295 gektar (23,9%) boshqa yer maydonlari tashkil qiladi, qolgan 6,9 foiz yer maydonlarini tashlandiq yerlardir.

Viloyatning katta qismi Qizilqum cho'li bilan band bo'lganligi sababli, bu yerda cho'lga xos o'simliklar keng tarqalgan.

• Qumli cho'llar: Bularga saksovul (oq va qora), jeron o'ti, chiryichoq, iloq kabi o'simliklar kiradi. Saksovul relyefni mustahkamlashda va qum ko'chishini oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

• Toshli cho'llar (sayg'oqi va shag'alli cho'llar): Bu hududlarda ylistovul, efemerlar (bahorda qisqa muddatda o'sib, urug' beradigan o'tlar, masalan, lola, qo'ng'irbosh), sidirach va boshqalar uchraydi.

• Shag'alli cho'llar: Bunday joylarda burganj, bo'yintug', eshakmiya kabi o'simliklar o'sadi.

• Daryo vodiylari va sug'oriladigan hududlar: Amu daryosi vodiysida va sug'oriladigan yerlarda tol, terak, jig'a, turli butalar va qishloq xo'jaligi ekinlari mavjud. Bu hududlarda sug'oriladigan dehqonchilik sababli o'simliklar xilma-xil bo'ladi.

• Sho'rxoklar: SHO'rxok joylarda sho'rga chidamli o'simliklar, masalan, shuvoqning ba'zi turlari, sho'ra va boshqalar o'sadi.

Hayvonot dunyosi:

Buxoro viloyatining hayvonot dunyosi ham cho'l sharoitiga moslashgan turlardan iborat.

• Sutmizuvchilar:

• Yirtqichlar: Tulki (cho'l tulkisi - korsak), bo'ri.

• O't yeydiganlar: Jayron (Buxoro jayroni – juda noyob va himoyaga muhtoj tur), kiyik, quyonsuyak, sidirg'a (kalamushsimonlar). Cho'l sichqonlari, yumronqoziqlar ham ko'p uchraydi.

• Hasharotxo'rlar: Siqil (Erinaceus roumanicus), cho'l tipratikani.

• Chiyportikanlar: Burgut, lochin, qirg'iyalar kabi yirtqich qushlar va boshqa mayda qushlar.

• Sudralib yuruvchilar: Cho'l ilonlaridan charx ilon, zirhli ilon, echkamar (kaltakesak) kabi turlar keng tarqalgan. Shuningdek, dengiz echkemari, kaltakesaklar ham uchraydi.

• Amfibiyalar: Suv havzalari yaqinida ba'zi turdagi baqalar uchraydi.

• Baliqlar: Amu daryosida va suv omborlarida sazan, laqqa baliq, oshilbaliq, zarhal baliq kabi turli baliq turlari yashaydi.

• Hasharotlar: Cho'l hududlarida chigirtkalar, kapalaklar, chumolilar, o'rgimchaklar va boshqa ko'plab hasharotlar mavjud. Ba'zi hasharotlar qishloq xo'jaligi uchun zararkunanda bo'lsa, ba'zilar tabiatning muhim halqasini tashkil etadi.

• Muhofaza qilinadigan hududlar: Buxoro viloyatida jayran kabi noyob hayvonlarni saqlab qolish maqsadida Jayron ekologiya markazi tashkil etilgan. Bu markazda jayranlarni ko'paytirish va ularning sonini oshirish bo'yicha ishlar olib boriladi.

Umuman olganda, Buxoro viloyatining o'simlik va hayvonot dunyosi uning cho'l va yarim cho'l sharoitiga moslashgan bo'lib, ayrim noyob va himoyaga muhtoj turlarga ham ega. Jumladan, Amudaryo vohasi landshaftlari sug'orish tizimlariga bog'liq holda o'zgarib bormoqda, Qizilqum hududi esa shamol eroziyasi ta'sirida degradatsiyaga uchramoqda. Bunday hodisalarni oldini olish uchun cho'l o'simliklarni ko'paytirish, cho'l sharoitida o'sishga moslashgan o'simliklar ko'chatlarini ekib parvarishlash lozim.

Suv resurslarining muhimligi va muammolari:

• Qishloq xo'jaligi: Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxtachilik, g'allachilik va poliz ekinlarini rivojlantirishda suv resurslari asosiy omil hisoblanadi.

• Ekologik muammolar: Cho'l hududida joylashganligi sababli, sug'orish tizimidagi suv yo'qotishlari, yerlarning sho'rlanishi, suv tanqisligi kabi ekologik muammolar ham mavjud.

• Suvdan samarali foydalanish: Suv resurslaridan samarali foydalanish, suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish viloyat uchun doimiy dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa. Buxoro viloyatida jami sug'oriladigan erlar 274,60 ming gektar bo'lib, asosan Amudaryodan Amu-Buxoro mashina kanali orqali va qisman Zarafshon daryosi suv resurslaridan foydalanadi. Sug'orish maqsadida bir yilda qishloq xo'jaligi uchun jami 4.1-4.3 mlrd m³ suv resurslari ishlatiladi. Sug'oriladigan maydonlardan har yili kollektor-zovurlar orqali 1.9-2.1 mlrd m³ suv olib chiqib ketiladi. Suv tanqis bo'lgan yillarda ularning 60-61 % ini sug'orma dehqonchilikda qayta ishlatish, 5.2-5.3 % ini daryo suvlari bilan qo'shib qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda foydalanish orqali suv tanqisligining salbiy oqibatlarini olish mumkin. Ilmiy tadqiqot natijalari viloyat suv resurslarini muhofaza qilishda va ulardan oqilona foydalanishda muhim omillardan hisoblanadi.

Buxoro viloyati landshaftlarini o'rganish metodologiyasi tabiiy komponentlar o'zaro aloqadorligini aniqlash, ularning hududiy farqlanishini belgilash va amaliy yo'nalishlarda qo'llash imkonini beradi. Bu metodologiya asosida viloyatning ekologik holatini yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin, vaholanki hududa shuvoq, saksavul kabi efemeroid o'simliklarni ko'paytirish viloyat cho'l hududini ekologik holatini saqlab qoladi.

Buxoro vohasining geologik tuzilishi va relyefi boshqa hududlardan sezilarli darajada farq qiladi va uning iqlimiy va gidrologik sharoitlarini belgilaydi. Vohaning iqlim sharoiti atmosfera yog'inlarining kamligi bilan ajralib turadi. Bunay sharoitda hududa erta bahorda yog'gan yomg'ir suvlaridan samarali foydalanish maqsadida cho'l sharoitida yomg'ir suvlarini yig'uvchi hovuzlarni tashkil etish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Baratov P.X. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. // Toshkent. 1996. B. 170-177.
2. Khayitov Y.K., Toshbekov N.A., Zhumaeva T.A. Criteria and scales of the secondary use of collector-drainage waters (on the exam'le of the Bukhara oasis). Bulletin of the Karakal'ak branch of the Academy of Sciences of the Re'public. 2019.
3. Ahmadovich T.N., Kasimovich H.Y., Azamovna J.T. Efficient use of water resources of the amu-bukhara canal. akademik. An International multidisci'inary Research Journal 30, 2020.15-18.
4. Abdullayev A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. Xolmatov M. Landshaftshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Buxoro viloyati ekologik atlasidan ma'lumotlar (2023).
7. O'zbekiston Respublikasi Geografiya instituti hisobotlari (2024).
8. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik – Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016 44-48.